


## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 732,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 103,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,6 % ni tashkil etdi.



**B**–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash)sanoatning 2,5 % ga, tog`-kon sanoatning 22,5 % ga pasayishi kuzatildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 12,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 10,3 % ga o'sishi kuzatildi.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 323,6 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 44,2 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 12,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,9 %), o'rta-yuqoritexnologiyali 10,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,2 %), o'rta-quyitexnologiyali 70,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 21,7 %), quyi texnologiyali 230,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 71,2 %) ni tashkil etdi.


## Yuqori texnologiyali




## O'rta-yuqori texnologiyali



## O'rta-quyi texnologiyali



## quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi  
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 36,3 ming l 100 % spirti (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 57,4 % ga kamaygan), 15,3 tonna bint (78,0 %), 3,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (9,8 %) ishlab chiqarilib yuqori kamayish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	3,6	3,2	-0,4
Aroq, ming l. 100% spirt	85,0	36,2	-48,8
Sellyuloza, ming tonna 90%	177,6	150,6	-27,0
Paxta tolasi, ming tonna	5,4	4,0	-1,4
Yigirilgan ip, tonna	215,6	239,3	23,7
Paxta chigiti, ming tonna	8,6	6,6	-2,0
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,5	0,4	-0,1
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	2,1	1,8	-0,3
Etilen polimer qoplar, ming tonna	0,8	0,9	0,1
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln. kV t/s	42,4	33,0	-9,4
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	1,4	1,6	0,2

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**3,2**  
*ming tonna*



Aroq

**36,0**  
*ming l. 100 % spirt*




Sellyuloza

**150,6**  
*ming tonna 90 %*



Paxta chigiti

**6,6**  
*ming tonna*



Paxta tiviti (lint)

**0,4**  
*ming tonna*



Yigirilgan ip

**239,3**  
*tonna*



Paxta tolasi

**4,0**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**0,9**  
*ming tonna*



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**33,0**  
*mln. kV t/s*



Bug‘ va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

**1594,8**  
*ming Gkal*




Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa

**1,8**  
*ming tonna*

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar oyida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 399,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 54,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,3 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	42,4	33,0	-9,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1439,4	1594,8	155,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.




2021-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga o'sishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 205,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 28,0 % ni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 0,4 % ni (2020-yil yanvar oyida 1,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 31,4 % ni, shuningdek, Guliston shahri 17,1 % ni, Mirzaobod tumani 15,2 % ni hamda Yangiyer shahrida 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (107,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (289,5 %), Sardoba tumanida (122,3 %) va Sayxunobod tumanida (114,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021-yilning yanvar oyida)**


	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020-yil yanvar oyiga nisbatan, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>205,3</b>	<b>100,0</b>	<b>107,2</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>35,2</b>	<b>17,1</b>	<b>86,3</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>3,2</b>	<b>1,5</b>	<b>94,7</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>18,6</b>	<b>9,1</b>	<b>89,9</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Boyovut.</b>	<b>8,0</b>	<b>3,9</b>	<b>87,4</b>
<b>Guliston.</b>	<b>5,2</b>	<b>2,5</b>	<b>78,7</b>
<b>Mirzaobod.</b>	<b>31,1</b>	<b>15,2</b>	<b>289,5</b>
<b>Oqoltin.</b>	<b>5,8</b>	<b>2,8</b>	<b>97,0</b>
<b>Sardoba.</b>	<b>7,1</b>	<b>3,5</b>	<b>122,3</b>
<b>Sayxunobod.</b>	<b>14,2</b>	<b>6,9</b>	<b>114,1</b>
<b>Sirdaryo.</b>	<b>64,4</b>	<b>31,4</b>	<b>103,5</b>
<b>Xovos.</b>	<b>12,5</b>	<b>6,1</b>	<b>91,7</b>

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 83,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.

2020- yil  
yanvar



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar

2021- yil  
yanvar




Boshqa korxonalar

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 58,9 %), Sirdaryo tumani (49,2 %), Sayxunobod tumani (42,9 %), Guliston shahri (28,2 %), hamda Yangiyer (7,8 %) shaharlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	<b>2021-yil yanvar mlrd. soʻm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>732,7</b>	<b>103,2</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>67,4</b>	<b>101,0</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>371,7</b>	<b>109,3</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>48,3</b>	<b>111,0</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut.</b>	<b>35,8</b>	<b>128,8</b>
<b>Guliston.</b>	<b>6,8</b>	<b>42,2</b>
<b>Mirzaobod.</b>	<b>63,8</b>	<b>128,8</b>
<b>Oqoltin.</b>	<b>6,0</b>	<b>22,6</b>
<b>Sardoba.</b>	<b>7,2</b>	<b>44,2</b>
<b>Sayxunobod.</b>	<b>20,5</b>	<b>102,8</b>
<b>Sirdaryo.</b>	<b>88,3</b>	<b>83,4</b>
<b>Xovos.</b>	<b>17,0</b>	<b>100,2</b>

## Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 50,7 %), Sirdaryo tumani (12,1 %), Guliston shahri (9,2 %), hamda Mirzaobod tumani (8,7 %), Yangiyer shahri (6,6 %), Boyovut tumani (4,9 %), va Sayxunobod (2,8 %) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xovos tumani (2,3 %), Sardoba tumani (1,0 %), Guliston tumani (0,9 %) hamda Oqoltin tumaniga (0,8 %) to‘g‘ri kelmoqda.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish (2021-yil yanvar oyi, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>858,3</b>	<b>240,5</b>
Guliston sh.	739,7	386,3
Shirin sh.	19769,0	168,0
Yangiyer sh.	1101,6	424,7
tumanlar:		
Boyovut	274,2	61,4
Guliston	93,1	70,8
Mirzaobod	860,1	419,4
Oqoltin	114,2	110,1
Sardoba	108,1	107,6
Sayxunobod	263,7	182,0
Sirdaryo	684,0	498,8
Xovos	176,8	130,1

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarning o'sishi**  
(2020-yil yanvar oyiga nisbatan, % da)

Sanoat ishlab chiqarish		Xalq ist`emol mollari
99,5	Guliston sh.	85,0
108,1	Shirin sh.	93,7
108,7	Yangiyer sh.	88,0
126,7	Boyovut.	86,0
41,2	Guliston.	76,7
125,3	Mirzaobod.	281,7
22,2	Oqoltin.	95,3
43,5	Sardoba.	120,3
101,1	Sayxunobod.	112,2
82,0	Sirdaryo.	101,7
98,4	Xovos.	90,1


**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan  
mahsulotlar hajmi va ulushi**  
(2021-yil yanvar oyida)

	<b>Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>Jamiga nisbatanulushi, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>225,1</b>	<b>30,7</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>28,8</b>	<b>42,7</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>3,1</b>	<b>0,8</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>18,2</b>	<b>37,8</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	<b>35,2</b>	<b>98,3</b>
<b>Guliston</b>	<b>6,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>52,7</b>	<b>82,5</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>4,9</b>	<b>81,8</b>
<b>Sardoba</b>	<b>7,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>13,5</b>	<b>65,9</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>46,2</b>	<b>52,3</b>
<b>Xovos</b>	<b>8,6</b>	<b>50,3</b>



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 195,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jamisanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oqoltin tumani (100,0 %), Guliston tumani (100,0 %), Xovostumani (77,4 %), Guliston shahri (74,9 %), Sayxunobod tumani (69,7 %) hamda Sirdaryo (53,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yangiyer shahri (48,1 %), Boyovuttumani (29,4 %), Mirzaobod tumani (19,9 %) hamda Shirin shahrida (0,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2101 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 547 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 %) Guliston shahriga, 349 tasi (16,6 %) Sirdaryo tumaniga, 192 tasi (9,1 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021-yil yanvar oyida viloyatda 32 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 78,1 foizi Sirdaryo tumani, Oqoltin tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (067) 236-86-23